2. Истнюк Д. Архивы // Архивное дело. 1995. Вып. V–VI; Первое Сибирское краевое со вещание архивных работников // Новосибирск, 1928.
3. Анфилов Б. Российский // Архивное дело. 1998. № 1. С. 37–61.
4. Максаков В.В. Документы советского государства в архивах СССР // Труды МГИАИ. М., 2001. Т. 4.
5. Чернов А.В. История и организация архивного дела в СССР. М., 2010.
6. Чупрова Э.Г. Становление и развитие архивной отрасли в 1917 – 1991 гг. (на примере Коми ССР): автореф. дис. ... канд. ист. наук. Сыктывкар, 2004;
7. Боброва В.С. Государственные архивы Сибири (1920 – 1930-е гг.): автореф. дис. ... канд. ист. наук. М., 2002.
8. O'zR MDA. 17-jamg'arma 0-1 ro'yxat 210-yig'ma jild, 88-varaq.
9. Is'hoqov M.M, Alimova R.R. Arxivshunoslik. – T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, 2020. – B.163.
10. Алимов И.А., Мирзабайев А.А. отв.ред. Вайс М.Л.Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968гг). – Т., 1984. стр.14
11. Alimov I.A. Arxivshunoslik.-T: Tafakkur bo'stoni, 2015. – B. 14.
12. Kholboev M. Establishment of a modern archive institution in Uzbekistan //Жамият ва инновациялар. 2024. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-p122>
13. O'zR MDA. 399-jamg'arma 0-1 ro'yxat 223-yig'ma jild, 19-varaq.
14. O'zR MDA. 399-jamg'arma 0-1 ro'yxat 32-yig'ma jild, 1-varaq
15. Алимов И.А., Мирзабайев А.А. отв.ред. Вайс М.Л.Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968гг). – Т., 1984. стр.15.
16. Is'hoqov M.M, Alimova R.R. Arxivshunoslik. – T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, 2020. – B.165-166.
17. Г.С. Тилекулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980-е гг.). Опыт и проблемы. // дис. ... канд. ист. Ташкент. 1995. - С. 52.
18. Чориев Ш.Ш. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви жамғармалари - Туркистон АССРдаги иктисодий жараёнларни ёритувчи манба сифатида. т.ф.ф.д.дисс. Тошкент. 2018 - Б.13.
19. Jumayev U. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi. – T: TURON-IQBOL, 2016. – B. 92.
20. Rashidov O. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi.-Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – B. 59-60.



UDK: 338:297.930.(584.4)

Nozima MATYAQUBOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: matyاقubovtohirjon4717

Urganch davlat universiteti professori, t.f.n Q.Sobirov taqrizi asosida

QADIMGI XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI AMUDARYO QUYI HAVZASINING ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimgi Xorazm vohasida sug'orish tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi Amudaryoning quyi havzasi arxeologik tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Amudaryo oqimining geografik xususiyatlari, o'zanlarining o'zgarishi va uning vohada sivilizatsiyaning shakllanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining yutuqlari, qadimgi kanallar va sug'orish tizimlarining topilishi, aerometod uslubi orqali olib borilgan tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, Amudaryo, sug'orish tizimi, arxeologik tadqiqot, Orol dengizi, Uzbo'y, S.P. Tolstov, o'zanlar, cho'llanish.

ДРЕВНИЕ ИРРИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ ХОРЕЗМА НА ОСНОВЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ АМУДАРЫ

Аннотация

В данной статье анализируется формирование и развитие ирригационных систем в древнем Хорезме на основе археологических исследований нижнего течения Амударьи. Рассматриваются географические особенности течения Амударьи, изменение её русел и влияние на становление цивилизации в оазисе. Освещаются достижения Хорезмской археологической экспедиции под руководством С.П. Толстова, открытия древних каналов и ирригационных систем, а также применение аэрометодики в исследованиях

Ключевые слова: Хорезмский оазис, Амударья, ирригационная система, археологические исследования, Аральское море, Узбой, С.П. Толстов, русла, опустынивание.

ANCIENT IRRIGATION SYSTEMS OF KHOREZM BASED ON ARCHAEOLOGICAL STUDIES OF THE LOWER AMU DARYA

Annotation

This article analyzes the formation and development of irrigation systems in ancient Khorezm based on archaeological research conducted in the lower reaches of the Amu Darya River. It examines the geographical features of the Amu Darya's flow, the changes in its riverbeds, and their impact on the emergence of civilization in the oasis. The achievements of the Khorezm Archaeological Expedition led by S.P. Tolstov are highlighted, including the discovery of ancient canals and irrigation systems, as well as the use of aerial methods in research.

Key words: Khorezm oasis, Amu Darya, irrigation system, archaeological research, Aral Sea, Uzboy, S.P. Tolstov, riverbeds, desertification.

Kirish. Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va boy tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo'lib, u yerda sug'orish tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Amudaryoning quyi havzasi hududida vujudga kelgan ushbu sug'orish tizimlari qadimgi davr aholisi tomonidan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish natijasi sifatida qaraladi. Amudaryo o'zani va uning ko'plab irmoqlari Xorazm sivilizatsiyasining asosiy hayot manbai bo'lgan. Sug'orish tizimlarining shakllanishi, rivojlanishi va keyinchalik cho'llanish jarayonlari bu hududda olib borilgan ko'plab arxeologik va geologik tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylangan. Mazkur maqolada aynan shu jarayonlar, ya'ni qadimgi sug'orish tizimlarining o'ziga xos jihatlari va ularning sivilizatsiya shakllanishidagi o'rni arxeologik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Xorazm vohasining sug'orish tizimlari tarixini o'rganishda S.P. Tolstovning "Древний Хорезм" asari asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda qadimgi kanallar va sug'orish inshootlari arxeologik jihatdan chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, B.V.

Andrianovning "Древние оросительные системы Приаралья" nomli tadqiqoti sug'oriladigan dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini yoritib bergan. A.C. Кесь tomonidan Orol dengizining holosen davridagi holati va uning sug'orish tizimlariga ta'siri o'rganilgan.

Ya.G'ulomov tomonidan yozilgan "Xorazmning sug'orilish tarixi" asari esa mahalliy tadqiqotlar qatorida ajralib turadi va qadimgi zamonlardan to zamonaviy davrgacha bo'lgan sug'orish tizimlari rivojlanishini yoritadi. Ushbu manbalar Xorazm vohasidagi sug'orish tizimlarini o'rganishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologik asoslar. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasidagi qadimgi sug'orish tizimlarini o'rganishda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy-uslubiy metodlar qo'llanildi. Arxeologik qazishmalar natijalari, aerofoto va aerokosmik tasvirlar tahlili, tarixiy yozma manbalar asosida solishtirma tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek, geologik izlanishlar va radiouglerod datalash usuli orqali Amudaryo oqimining tarixiy o'zgarishlari, cho'llanish jarayonlari hamda sug'orish tizimlarining shakllanish davrlari aniqlashga harakat qilindi. Ushbu

metodlar uyg'unligi qadimgi sug'orish tizimlarining rivojlanishi va tanazzul jarayonlarini har tomonlama va ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil. Xorazm vohasi Amudaryoning quyi oqimida joylashgan. Amudaryo va uning o'zanlari bu hududda o'ziga xos sivilizatsiyani shakllantirgan. Amudaryo suvining harakati insonlarning turmush tarzini belgilagan. Bugungi kunda Xorazm vohasiga O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy qismi va Turkmanistonning Tashhovuz viloyatining shimoliy, shimoli-sharqiy qismi to'g'ri keladi[2]. Vohaning hamma tomoni cho'llardan iborat. Janubdan Qoraqum cho'li bilan, g'arbda Ustyurt platosi, cho'li va sharqda Qizilqum bilan chegaradosh, shimol tomondan Orol dengizigacha davom etadi.

Amudaryoning quyi hududi asosan pasttekisliklardan iborat. Janubi-sharqiy, shimol tomonga bir oz qiyalashgan. Toshsaqa hududi daryo sathidan 8-10 metr balandlikda, o'ng sohil esa past bo'lib, atrofda yerlardan 1-3 metr farq qiladi. Qizilqumning markaziy qismida palezoy davri qoldiq tog'lari saqlanib qolgan. Bu tog'lar yemirilib ketgan bo'lib, balandligi 922 metrdan oshmaydi[4]. Bu tog'larning eng muhimlari Quljuqtog', Yetimtog', Tomditog', Ovminzatog', Sulton Uvays tog'lari hisoblanadi. Amudaryo o'ng qirg'og'ining shimoli – sharqiy tomonida Sulton Uvays tog'i joylashgan. Qizilqumning shimoli – g'arbini egallagan. Dengiz sathidan 485 metr balandlikda joylashgan. Tog' 40–45 kilometr kenglikni egallab, eniga 10–15 kilometr ga cho'zilgan, umumiy maydoni 700 km² ni tashkil qiladi. Tog'ning eng baland joylari Qoraching'il 485 metrni, Achchiqto'sh 473 metrni tashkil qiladi[1]. Tog'larda doimiy oqar suvlar mavjud emas, faqat yog'ingarchilik vaqtida suv bo'ladi. Faunasi asosan, cho'l o'simliklaridan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Yozi quruq issiq, qishi qattiq sovuq bo'ladi. Shimoliy Qizilqum hududida Bo'kantog' va Yetimtog'ning shimoliy qismlari joylashgan.

Amudaryoning o'rta oqimi bilan quyi oqimi o'rtasidagi tabiiy-geografik chegara asosan Tuyamo'yin hududlaridan o'tadi. Bu yerda daryo o'zining oqim yo'nalishini keskin o'zgartirib, tabiiy torayish – Tuyamo'yin tangligini hosil qiladi. Mazkur tanglik daryo oqimining tezlashishiga va eroziya jarayonlarining kuchayishiga sabab bo'lgan, natijada bu hudud geologik jihatdan ham ahamiyatli hisoblanadi.

Amudaryo havzasi keng ko'lamlı gidrografik tarmoqqa ega bo'lib, uning quyi oqimi Nukus shahri yaqinlaridan boshlanadi. Nukus atrofida boshlab daryo bir necha yirik va kichik tarmoqlarga ajraladi. Ular orasida Qipchoqdaryo, Oqdaryo, Erkindaryo, Ko'hndaryo, Toldiqdaryo va Qozoqdaryo kabi tarmoqlar muhim o'rin tutadi. Bu tarmoqlar tarixan ham sug'orish tizimlarining shakllanishida, ham Amudaryo suvi hisobiga rivojlangan vohalarning paydo bo'lishida asosiy rol o'ynagan.

Amudaryo o'zanlariga har yili millionlab tonna loyqa (silt) oqib keladi. Daryo suvi bilan olib kelingan ushbu cho'kindi materiallar daryo o'zanini to'ldirib boradi, oqim yo'nalishining o'zgarishiga va yangi tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim joylarda ushbu loyqaning umumiy qalinligi 80 metrgacha yetadi. Bu holat Amudaryoning geodinamik o'zgaruvchanligini va uning atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sirini ochib beradi.

Ushbu ma'lumotlar Amudaryo havzasining nafaqat tabiiy geografiyasi, balki tarixiy sug'orish tizimlari, agrar landshaftlar va insoniyat faoliyatining shakllanishidagi o'rni haqida muhim ilmiy asos yaratadi.

Natijalar. Xorazm vohasida insonlar hayot tarzi Amudaryo suvi bilan bog'liq bo'lganligi sababli tadqiqotchilar aholi turmush tarzini tahlil qilishda birinchi navbatda Amudaryo suvining harakati masalasiga e'tibor qaratadilar.

Amudaryo tarixini o'rganish geolog olimlar bilan bir qatorda arxeolog tarixchi olimlar tomonidan ham olib borilgan. Arxeologlar XX asning 40 - yillaridan boshlab, Amudaryo quyi xavzasining sug'orilish tizimi tarixini tadqiq qilganlar[6]. S.P.Tolstov tomonidan "Qadimgi Xorazm" asarida qadimgi davrda kanallar va sug'orish tizimi bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. XX asning ikkinchi yarmida Amudaryo va uning oqimlari tarixini o'rganishdan asosiy maqsad Xorazm vohasida sun'iy sug'orish tizimlarini yanada rivojlantirish yo'llarini o'rganish va cho'llarga aylangan hududlarni qayta o'zlashtirish bo'lgan. Shu bilan birga Uzbo'y masalasi va cho'llanish jarayonining ko'chayib borish jarayonlarini tahlil qilishdan iborat bo'lgan. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan Amudaryoning quyi havzalaridagi mil.avv. II ming yillikdan to XIX asrgacha bo'lgan davrdagi sug'orish tizimlari, ularning atrofida turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar joylashgan 5 mln. gektar hudud o'rganilgan. Bunda aerometod uslubidan keng foydalanganlar. Natijada sug'orish tizimlarining tuzilishi, tarqalgan hududlari va rivojlanish bosqichlarini aniqlaganlar. Bunda yozma manbalardagi ma'lumotlardan ham unumli foydalanilgan. Shu davrda olib borilgan tadqiqot ishlarning ahamiyati bugungi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Amudaryo quyi oqimining bugungi kundagi ko'rinishining shakllanganligiga juda uzoq davr bo'lgani yo'q. Orol dengizining shakllanishi 18 ming yil oldin yer yuzasining issishi va muzliklarning erishi bilan vujudga kela boshlangan. Amudaryo suvining unga kelib tushish jarayoni Pomir va Tyan-Shan tog'laridagi muzliklarning erishi natijasida sodir bo'lgan. Radiouglerod tahlillariga ko'ra bundan 17, 6 ming yildan 15,3 ming yilgacha davom etganligi aniqlangan[3]. Bu paytda Orol dengizining suvi chuchuk bo'lgan. Amudaryo Uzbo'y irmog'i orqali Kaspiy dengiziga, To'rg'ay daryosi Orol dengiziga quygan. 15 mingchi yildan 13,8 ming yilgacha davr davomida muzlarning erishi kamaygan va Orol dengiziga suv kelib tushmasligi oqibatida uning suvi sho'rlashgan.

Orol dengizi havzasi murakkab va o'zgaruvchan gidrologik muhitga ega bo'lgan. Taxminan 14–13 ming yil avvalgi davrda Orol hududida suv sathi keskin kamayib, chuchuk suv muhitida yashovchi barcha hayvonlar halok bo'lgan. Bu ekologik halokatning asosiy sababi Orol havzasining suvi bilan ta'minlanishining to'xtashi yoki keskin kamayishi bilan izohlanadi.

Biroq oradan vaqt o'tib, ya'ni 13 ming yil ilgari, yana suv sathi ko'tarila boshlagan. Bu jarayon natijasida Orol dengizida suv miqdori asta-sekin ortib, havzaning qisman tiklanishiga olib kelgan. Ayni shu davrda Sirdaryo daryosining suvlari ham Orol dengiziga kelib quyila boshlagan. Shunga qaramay, Sirdaryo suvi hajmi Amudaryo suvi bilan taqqoslaganda ancha kam bo'lgan. Manbalarga ko'ra, Sirdaryo suvlari Amudaryo suvlariga nisbatan uch barobar kam bo'lgan.

Amudaryoning quyi oqimidagi o'zanlar o'z yo'nalishlarini tez-tez o'zgartirib turgani sababli daryoning Orol dengiziga quyilish darajasi barqaror bo'lmagan. Bu esa Orol dengizining suv balansi va ekotizimiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Daryo o'zanlarining o'zgaruvchanligi nafaqat tabiiy geologik jarayonlar, balki iqlimdagi o'zgarishlar, cho'kindi moddalar oqimi va tektonik harakatlar bilan ham bog'liq bo'lgan. Mazkur gidrologik va ekologik o'zgarishlar Orol havzasining tarixiy rivojlanishida muhim bosqichlardan biri bo'lib, keyinchalik vohaning sug'orishga asoslangan dehqonchilik faoliyatiga, yashash joylarining joylashuviga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. Shu sababdan dengiz sathi, sho'rlanish darajasi davrlar davomida bir xil bo'lmagan[5]. Orol dengiziga suvning kelib turish darajasi yillar davomida o'zgarib turgan. XVI-XVII asrlarga kelib Orol dengizida suvning kamayib ketishi Borsakelmas, Qasqaqulon,

Ko'zetmas, Biyiktov, Vozrojdeniya kabi orollarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Sirdaryoning Janadaryo va Quvondaryo irmoqlari 1918 yilning boshlarida Orol dengiziga quymay qo'ygan.

Amudaryo o'zanlarining shakllanish davri ham so'nggi paleolit davri bilan bog'liq, shu davrda Amudaryo g'arbga qarab oqmasdan yo'nalishini shimolga tomon

o'zgartirgan. G'arb tomonga oqqanda Amudaryo Chorjuy atroflarida g'arbga tomondan o'tib, Kaspiy dengiziga quyilgan. Shimol tomonga o'z yo'nalishini o'zgartirgan davrda Xorazm vohasidagi Amudaryoning uchta asosiy o'zani: Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi va hozirgi Orolbo'yi o'zanlari shakllangan[7]. O'zanlarning shakllanishi esa, suvning Orol dengiziga qo'yilishini ta'minlagan.

ADABIYOTLAR

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sulton-uvays-togi-uz/>. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Б.154–162.
2. www.wikipedia.org/wiki/Хорезмский_оазис. Murojat vaqti. 30.08.2024.
3. www.wikipedia.org/wiki/Аральское_море. Murojat vaqti 03.08.2024.
4. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Тошкент. Ўқитувчи. 1997. –Б. 111.
5. Кесь А.С. Аральское море в голоцене // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 19.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ. 1948. – С. 43–56; Низовья Аму-дарьи, Сарыкамыш, Узбой (История формирования и заселения) // МХЭ. Вып.3. – М.: Изд. АН СССР. 1960;
7. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959; Андрианов Б.В. Древние оросельные системы Приаралья (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – Москва: Наука, 1969.
8. Толстов С.П., Кесь А.С. История первобытных поселений на протоках древних дельт Аму-Дарьи и Сыр-Дарьи // Сборник статей для XVIII международного географического конгресса. – М. – Л., 1956. – С. 327–336.



UDK:930.25:378.4(575.1)

Azizbek NAZAROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: azizbek_888@mail.ru

PhD M.Darmonova taqrizi asosida

O‘zMU Tarix fakulteti tashkil etilganligining 90 yilligiga bag‘ishlanadi.

FUND S-38 AS AN IMPORTANT SOURCE ON THE HISTORY OF THE HISTORY FACULTY OF THE NUUZ

Annotation

This article analyzes information about the history of the History Faculty of the National University of Uzbekistan based on documents from Fund S-38 of the Central State Archive of the city of Tashkent. Based on the documents contained in this fund, the article highlights the history of the establishment of the faculty and its departments. The protocols of academic councils found in the archival documents were also studied, along with information from documents and reports reflecting the activities of the departments. Professors and lecturers, as well as the administrative and organizational work of the university, are covered on the basis of archival materials.

Key words: National University of Uzbekistan, History Faculty, History and Philology, Central State Archive of Tashkent, teaching staff, students, evening studies, correspondence studies, fund S-38, case file, report, protocol, document.

ФОНД С-38 КАК ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ИСТОРИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА НУУЗ

Аннотация

В данной статье анализируются сведения об истории исторического факультета Национального университета Узбекистана на основе документов фонда С-38 Центрального государственного архива города Ташкента. На основе документов, имеющихся в этом фонде, освещается история создания факультета и кафедр. Также были изучены протоколы научных советов в архивных документах, а также информация в документах и отчетах, отражающих деятельность кафедр. Профессора и преподаватели, административная и организационная работа университета освещены на основе архивных документов.

Ключевые слова: НУУЗ, Исторический факультет, История-филология, Центральный государственный архив города Ташкента, профессорско-преподавательский состав, студенты, вечерний, заочный, фонд С-38, дело, отчет, протокол, документ.

S-38-FONDI O‘ZMU TARIX FAKULTETI TARIXIGA OID MUHIM MANBA SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti tarixiga oid ma‘lumotlar Toshkent shahar markaziy davlat arxividagi S-38-fondi hujjatlari asosida tahlil qilingan. Ushbu fondga mavjud hujjatlar asosida fakultet, kafedralarning tashkil etilishi tarixi yoritilgan. Shuningdek, arxiv hujjatlaridagi ilmiy kengashlar bayonnomalari hamda kafedralar faoliyati aks etgan hujjatlar va hisobotlardagi ma‘lumotlar o‘rganilgan. Professor-o‘qituvchilar, universitetning ma‘muriy-tashkiliy ishlar bo‘yicha qilingan ishlar arxiv hujjatlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zMU, Tarix fakulteti, Tarix-filologiya, Toshkent shahar markaziy davlat arxivi, professor-o‘qituvchilar, talabalar, kechki, sirtqi, S-38-fond, yig‘majild, hisobot, bayonnoma, hujjat.

Kirish. Arxiv hujjatlari ijtimoiy ma‘lumotlarning ajralmas va to‘liq baholanmagan manbai hisoblangani uchun olimlar ularga tez-tez murojaat qilishadi va qimmatli materiallarning manbaviy tahlili orqali tarixnavislik uchun ma‘lumotlarga ega bo‘lishadi. Ayniqsa, arxiv materiallari tarixiy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonning tarixini yoritishga xizmat qiladigan arxiv materiallarini hujjatshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish alohida ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Milliy universiteti faoliyati tarixi aks etgan S-38-fondini M.A. Darmonova “Toshkent shahar markaziy davlat arxivi: tarixi va tarixiy manbalari” nomli monografiyasida universitet tashkil etilishidan to 1964-yilgacha bo‘lgan jarayonlar yoritilgan ayrim hujjatlarni tahlil qilgan. Shuningdek, monografiyada universitet nizomi, asosiy faoliyat, boshqaruv ishi va uni tashkil etish bo‘yicha rejalar, hisobotlar aks etgan hujjatlar o‘rganilgan.

Universitet yubileylari uchun nashr qilingan ishlarda ham S-38-fondi o‘rganilgan. Xususan A.Azlarov, H.Boltaboyev, H.Dadaboyev va boshqar tomonidan yozilgan “Mo‘tabar ziyo maskani” nomli monografiyada universitetning 1918-2008-yillar faoliyatiga oid ma‘lumotlar arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Shuningdek, mavzuga oid maola va tezislarda faqat universitet tarixi aks etgan ma‘lumotlarni uchratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti kafedralarining yillik rejaları va hisobotlari, shuningdek, ta‘lim jarayonini har tomonlama o‘rganishga bo‘lgan harakatlar aks etgan hujjatlar arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan o‘rganildi. Chunki O‘zbekiston Milliy universiteti tarixi aks etgan S-38-fondidagi Tarix fakulteti tashkil topishidan to mustaqillik yillarining dastlabki davrlarigacha bo‘lgan faoliyati arxiv hujjatlari asosida yaxlit tarixiy tadqiqot sifatida shakllanmagan. Hujjatlarni tahlil qilish asosiy axborotni yig‘ishning keng qo‘llaniladigan va samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. S-38 fondida Mirzo Ulug'bek nomidagi Toshkent davlat universitetining (hozirgi – O'zbekiston Milliy universiteti) 1917 – 1998 yillardagi faoliyatini qamrab olgan rasmiy hujjatlar jamlangan. Ushbu hujjatlar universitetning ta'lim-tarbiya, ilmiy-tadqiqot va ma'muriy faoliyatining turli jabhalarini yorituvchi manbalar sifatida katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Fond tarkibi quyidagi asosiy hujjatlar turlarini o'z ichiga oladi:

Rektor buyruqlari – universitetning asosiy faoliyat yo'nalishlari, ma'muriy boshqaruv va tashkiliy-huquqiy qarorlariga oid hujjatlar;

Fakultetlar, kafedralar va tarkibiy bo'linmalarining yillik rejalari va hisobotlari – ta'lim jarayonini rejalashtirish va uning ijrosini tahlil qilish;

Ilmiy-tadqiqot ishlarining yillik rejalari va hisobotlari – universitetda amalga oshirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalarini aks ettiruvchi manbalar;

O'quv kengashi, ixtisoslashtirilgan kengashlar va fakultet kengashlari majlisleri bayonnomalari – ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ilmiy ishlar himoyasi va ilmiy darajalar berilishiga oid qarorlar;

Kafedra majlisleri, metodik seminarlar va konferensiyalar bayonnomalari – professor-o'qituvchilarning ilmiy-metodik tajriba almashish jarayonini aks ettiruvchi hujjatlar;

Talabalar ilmiy to'garaklarining faoliyatiga oid hujjatlar – iqtidorli yoshlarning ilmiy izlanishlari, ilmiy konferensiyalardagi ishtiroki va erishgan natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

Talabalar ishlab chiqarish amaliyotiga doir materiallar – oliy ta'lim jarayonining amaliy jihatlari ifodalovchi va kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan hujjatlar;

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisleri bayonnomalari va raislarining hisobotlari – bitiruvchilarning yakuniy attestatsiya jarayoni, malakaviy imtihonlar natijalari va diplom ishlarining baholanishini yorituvchi hujjatlar;

Shaxsiy tarkibga oid hujjatlar – professor-o'qituvchilar, universitetning ma'muriy-tashkiliy ishlar bo'yicha xodimlariga doir rasmiy ma'lumotlar.

Arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, S-38-fondida 1917 – 1998 yillar O'zbekiston Milliy universiteti tarixi aks etgan asosiy hujjatlar ya'ni universitet nomlaridagi o'zgarishlar bayonnomalari, boshqaruv ishi va uni tashkil etilishi bo'yicha rejalari, ilmiy himoyalari va yig'ilish bayonnomalari, hisobotlar hamda 1917–1998 yillardagi o'quv faoliyatiga doir 18669 yig'majild mavjud[1].

Arxiv manbalari tahliliga ko'ra, 1917-yil Toshkent shahrida Turkiston xalq universiteti tashkil etilgan[2]. Turkiston davlat universitetining tarkibi 1920-yilda Tibbiyot, Fizika-matematika, Texnika, Sotsial-iqtisodiyot, Harbiy, Qishloq xo'jaligi, Agronomika, Tarix-filologiya fakultetlari hamda rahbariyatdan iborat bo'lgan[3].

Turkiston davlat universiteti negizida tashkil etilgan tarix-filologiya fakulteti 1921-yilga kelib Sovet hukumati tomonidan tugatilib, uning o'rniga tabiiy-tarix bo'limi pedagogika fakulteti tarkibida tashkil etilgan[4]. 1922-yil tamomila tugatilgan, uning adabiy-badiiy bo'lim tarzida saqlanib qolgan qismi 1923-yil aprelda butunlay yo'q qilinishi ayrim adabiyotlarda izohlangani kabi moddiy yetishmovchilik yoki kadrlar tangligi tufayli emasdi, balki hukumat tepasida o'tirgan sovet kadrlari erli millatlarning o'zini tanishiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan fanlarni o'qitishga mutlaqo yo'l qo'ymaslikka urinishgan[5].

1935-yilda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qarori bilan Tarix fakulteti tashkil topgan[6]. 1935-yilda Tarix fakulteti tashkil etilishi bilan bir vaqtda umumiy tarix

yo'nalishida uchta alohida kafedra tashkil etilgan: qadimgi tarix, o'rta asrlar tarixi va yangi tarix kafedralari. 1937-o'quv yilidan boshlab esa ushbu yo'nalishlar yagona umumiy tarix kafedrasiga birlashtirilib, SSSR tarixi kafedrasiga tashkil etilgan. 1938-yilda Tarix fakultetida sirtqi ta'lim tashkil qilingan[7]. 1938-1939-o'quv yilida esa O'rta Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha mustaqil kafedra tashkil etilgan. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan so'ng, K. E. Jitkov va L. V. Bajenov Qizil Armiya safiga ketgan, V. Ya. Nenomovich esa partiya ishlariga o'tganligi sababli, 1941-yil sentabrdan boshlab O'rta Osiyo xalqlari tarixi kafedrasiga SSSR tarixi kafedrasiga tarkibiga qo'shilgan. 1940-yil aprel oyidan boshlab O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasiga rasmiy ravishda tashkil topgan.

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti faoliyati tarixini o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Shunday hujjatlardan S-38-fondi 1-ro'yxatining 535-yig'majildida jami 138 varaq hujjat bo'lib, Tarix fakultetida Professor X.A. Tun tomonidan 1939-yil 29-oktyabrda o'qilgan ma'ruza matni, "Qadimgi jamiyat tarixi" kursi bo'yicha stenogramma va talabalar tomonidan tayyorlangan ma'ruzalar va boshqa ilmiy hujjatlar mavjud[8].

S-38-fondi 1-ro'yxat 564-yig'majildida Tarix fakultetining 1941-1942-yillar ilmiy kengashi yig'ilish bayonnomalari bo'lib, unda dissertatsiya himoyalari natijalari tahlil qilingan bayonnoma ko'chirmalari mavjud[9].

S-38-fondining 779-yig'majildida jami 49 varaq hujjat bo'lib, unda Tarix fakultetining 1948-1949-yillardagi yig'ilish bayonnomalari mavjud. Bayonnomalarda Talabalar o'tilgan ma'ruzalar muhokamasi, darslar tahlili, bitiruv ishlari himoyalari jarayonlari, shuningdek ilmiy himoyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan[10].

S-38-fondining 779-yig'majildida jami 49 varaq hujjat bo'lib, Falsafa fakulteti 1963-yildan 1979-yilgacha Tarix fakulteti tarkibida bo'lim sifatida faoliyat ko'rsatganligi keltirilgan. Shuningdek, 1979-yilda Tarix fakulteti tarkibidan falsafa, iqtisod va psixologiya bo'limlari ajratilib, uchta mutaxassislikni birlashtiruvchi Falsafa-iqtisod fakulteti tashkil qilingan.

1972-yilda O'rta Osiyo hududida birinchi marta keng tarmoqli psixologik kadrlar tayyorlash uchun universitetning tarix fakulteti qoshida psixologiya bo'limi ochilgan. Keyinchalik Falsafa fakulteti tizimiga o'tkazilgan[11].

S-38-fondining 1-yig'majild hujjatlarida Tarix fakultetining ilmiy-tadqiqot faoliyati aks etgan bo'lib, unda fakultetning 1976–1988-yillardagi ilmiy rejalari, O'zbekiston xalqlari tarixi va yangi tarix bo'yicha 1977–1985-yillarni qamrab olgan ish rejalari mavjud[12].

S-38-fondining 2-ro'yxati 1778-yig'majildida Tarix fakultetining 1982-1983-o'quv yili uchun kafedralar faoliyatini rejalashtirish, dars jarayonining sifatini oshirish va metodik ishlarni rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, kafedralarning yillik ilmiy va o'quv-metodik faoliyatiga doir masalalar aks etgan hujjatlar ham mavjud[13].

1989 yil universitetning Tarix fakulteti quyidagi kafedralardan iborat bo'lgan:

1. SSR tarixi kafedrasini.
2. O'zbekiston xalqlari tarixi kafedrasini.
3. Yangi va eng yangi tarix kafedrasini.
4. Etnografiya, qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi kafedrasini.
5. Arxeologiya kafedrasini.

Toshkent shahar markaziy davlat arxivi S-38-fondidagi universitet rektori buyruqlarini tahlil qilish orqali Tarix fakulteti faoliyati va tirixiga doir ayrim ma'lumotlarni aniqlashtirish mumkin. Xususan, universitet rektorining 1991-yil 26-sentyabrdagi №01-302 sonli buyrug'i bilan sovet huquqlari kafedrasiga Tarix fakulteti tarkibiga kiritilgan[14]. Shuningdek, 1992-yildagi universitet rektorining №01-134 sonli buyrug'i bilan 1-apreldan Tarix fakultetida

Arxivshunoslik, muzeyshunoslik va manbashunoslik kafedrasida tashkil etilgan[15]. Universitet rektorining 1993-yil 28-apreldagi №01-127 sonli buyrug'i bilan Tarix fakulteti Etnografiya, qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi kafedrasida Etnografiya, Qadimgi dunyo va O'rta asrlar tarixi kafedrasiga bo'lingan[16].

Universitet rektorining 1994-yil 15-martdagi №01-88 sonli buyrug'i bilan Tarix fakulteti qoshidagi huquqshunoslik bo'limi asosida Huquqshunoslik fakulteti tashkil etilgan[17]. Shuningdek, universitet rektorining 1995-yil 11-iyuldagi №01-150 sonli buyrug'i bilan Tarix fakulteti qoshidagi huquqshunoslik bo'limi mustaqil Huquqshunoslik fakultetiga aylantirilgan[18].

Universitet rektorining 1995-yil 15-fevraldagi №01-21 sonli buyrug'i bilan Tarix fakultetidagi Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi, Yangi va eng yangi tarix, Yevropa tarixi va Osiyo, Afrika xalqlari tarixi kafedralari Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi hamda Yangi va eng yangi tarix kafedralariga birlashtirilgan[19].

S-38-fond 2-ro'yxatining 1370-yig'majildi hujjatlarida Tarix fakulteti kafedralarining 1993-1994-o'quv yilidagi ish rejalari hamda xisobotlari aks etgan ma'lumotlar mavjud.

S-38-fond 2-ro'yxatining 2011-yig'majildida Tarix fakulteti kechki va sirtqi bo'lim dekanatining 1995-1996-yillar ish rejalari hamda o'quv jarayoniga doir hujjatlar mavjud.

Toshkent shahar markaziy davlat arxividagi S-38-fondi universitetning ta'lim-ilmiy salohiyatini o'rganish, oliy ta'lim tizimining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish va O'zbekistondagi ilmiy-pedagogik merosni tadqiq etish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi[20].

Xulosa va takliflar. Toshkent shahar markaziy davlat arxividagi S-38-fondidagi hujjatlarni tasnif qilinadigan bo'lsa, ular tarkibida qaror, farmoyish, bayonnoma, hisobotlar, hay'at, bo'limlarning ish yuritish hujjatlari, hisob-kitob materiallari, yozishmalar, shikoyatlar, karta-sxema, chizmalar, ariza, buyruq va boshqa hujjat turlari mavjud. Yig'majildar hajmi turlicha – bir nechta sahifadan 250 varaqqacha bo'lgan hujjatlar mavjud[21].

O'zbekiston milliy universiteti tarix fakultetining tashkil etilishi tarixi, dastlabki davrlardagi faoliyati hamda ta'lim sohasida qilingan ishlarni aynan S-38-fond tarkibidagi hujjatlarni tahlil qilish orqali bilib olish mumkin. Shundan kelib chiqib, arxiv hujjatini qimmatli axborot tashuvchi vosita hisoblasak, unda jamiyat yoki biror bir tashkilot uchun saqlanadigan yoki saqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar bayon etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Дармонова М.А. Тошкент шаҳар марказий давлат архиви: тарихи ва тарихий манбалари. – Т.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020. 87 b.
2. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 1917-1967-yillar uchun, 19-varaq.
3. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'majild, 98-varaq.
4. Азларов А., Болтабоев Х., Дадабоев Х.ва бошқ. Мўътабар зиё маскани (1918-2008). ЎзМУ. –Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. 29-b.
5. Азларов А., Болтабоев Х., Дадабоев Х.ва бошқ. Мўътабар зиё маскани (1918-2008). ЎзМУ. –Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. 41-b.
6. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 1545-yig'majild, 13-varaq.
7. 20 лет Средне-Азиатского государственного университета. –1940. – С. 21
8. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 535-yig'majild, 1,19,87-varaqlar.
9. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 564-yig'majild, 1,3,6-varaqlar.
10. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 779-yig'majild, 4-5,8-varaqlar.
11. Азларов А., Болтабоев Х., Дадабоев Х.ва бошқ. Мўътабар зиё маскани (1918-2008). ЎзМУ. –Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. 47-b.
12. TSHMDA. S-38-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild.
13. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 1778-yig'majild. 1,7-varaqlar.
14. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 512-yig'majild, 40-varaq.
15. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 820-yig'majild, 67-varaq.
16. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 1114-yig'majild, 179-varaq.
17. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 1437-yig'majild, 165-varaq.
18. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 1769-yig'majild, 22-varaq.
19. TSHMDA. S-38-fond, 2-ro'yxat, 1437-yig'majild, 174-varaq.
20. Назаров, А. Ё. (2016). Организация использования документов Центрального Государственного архива кинофотофонодокументов Республики Узбекистан. Документ. Архив. История. Современность.—Екатеринбург, 2016. 484-489.
21. Nazarov, A. Y. (2020). Scientific societies in the Turkestan governorate-general as an instrument of colonial statehood (archival source study). Journal of Critical Reviews, 7(7), 1068-1073.



UDK:94:371.24(575.1)

Kozimbek POLVONOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: kozimbekpolvonov6@gmail.com

Qarshi davlat texnika universiteti professori, t.f.d Yu.A.Ergasheva taqrizi asosida

ACTIVITIES OF THE KASHKADARYA REGIONAL TEACHER INSTITUTE (1952-1991)

Annotation

This article analyzes the history of the Kashkadarya Regional Institute of Advanced Training for Teachers from 1952 to 1991. In particular, the establishment of the Institute of Advanced Training for Teachers in the regional center of Karshi, the beginning of its work in adapted buildings, and later in its current building, as well as the cooperation of the educational institution with educational institutions, educational and methodological work, their achievements and shortcomings are widely covered based on the analysis of scientific literature, "oral history" information, and archival documents.

Key words: Kashkadarya, oblast, district, city, vocational training institute, educational institution, school, teacher, subject, listener.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОБЛАСТНОГО ИНСТИТУТА ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ (1952-1991)

Аннотация

В статье анализируется история Кашкадарьинского областного института повышения квалификации учителей с 1952 по 1991 годы. В частности, на основе анализа научной литературы, сведений «устной истории», архивных документов широко освещается создание института повышения квалификации учителей в областном центре Карши, факт размещения института первоначально в приспособленных зданиях, а затем в нынешнем здании, а также сотрудничество учебного заведения с образовательными учреждениями, учебно-методическая работа, их достижения и недостатки.

Ключевые слова: Кашкадарья, область, район, город, профессионально-техническое училище, учебное заведение, школа, учитель, предмет, слушатель.

QASHQADARYO OBLAST O'QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI FAOLIYATI (1952-1991 YILLAR)

Аннотация

Mazkur maqolada Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish institutining 1952-1991 yillar tarixi tahlilga tortilgan. Jumladan, oblast markazi Qarshi shahrida o'qituvchilar malakasini oshirish instituti tashkil etilganligi, institut dastlab moslashtirilgan binolarda, keyinroq hozirgi faoliyat ko'rsatayotgan binosida ish boshlashi, shu bilan birga, o'quv dargohining ta'lim muassasalari bilan hamkorliklari, o'quv-uslubiy ishlar, ulardagi yutuq va kamchiliklar ilmiy adabiyot, "og'zaki tarix" ma'lumotlari va arxiv hujjatlari tahlili asosida keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, oblast, rayon, shahar, malaka oshirish instituti, ta'lim muassasasi, maktab, o'qituvchi, fan, tinglovchi.

Kirish. O'zbekiston pedagoglari yosh avlodni zamon talabi darajasida tarbiyalash maqsadida ta'limning turli ilg'or metodlarini egallashga va uni amaliyotda qo'llashga harakat qilib kelgan. Bu borada o'quv dargohlarining, xususan, Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish institutining ham salmoqli xissasi bor. O'quv dargohi bugungi kunda Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi maqomida faoliyat ko'rsatib kelmoqda va sovet davrida u muayyan tarixiy davrni bosib o'tdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qashqadaryodagi ilm dargohlarining faoliyati tarixi ko'pgina tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ular sirasiga T.Pardayev (Janubiy O'zbekistonda 1945-1991 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. –Toshkent: Yangi nashr, 2019.), M.Sohibova (O'zbekistonda madaniy hayot: tajriba va muammolar (Janubiy viloyatlar misolida (1946-1985 yy.)). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2008), J.Eshtemirov (XX-XXI asr boshlarida Qarshi shahrining madaniy hayoti. – Qarshi: Intellekt, 2023), D.Shadiyeva (Qarshi davlat universiteti: tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

avtoreferati. –Qarshi, 2024.) kabilarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Bu ishlarda vohadagi ta'lim muassasalari tarixi yoritilgan bo'lsa-da, o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlar uchramaydi. B.Mahmudovning (Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. –Qarshi: Nasaf, 1999.) risolasida viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish instituti tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Umumiy holatda, tanlangan mavzu alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Qashqadaryo viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish instituti faoliyati ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslanib, tizimli tahlil, "og'zaki tarix", shuningdek, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti 1952 yilda Qarshi shahrida tashkil etilgan[1]. Institutning asosiy ish faoliyati o'qituvchilarning bilim saviyasi va malakasini oshirishdan iborat bo'lib, institutda Xanifiy Sayfullin, Nabi Turdiyev, Abdulla Fattayev, Sattor Saidovlar[2] direktor lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Ilm dargohi dastlab Qarshi shahridagi moslashtirilgan binolarda, jumladan, 1970 yillarning o'talarigacha Charmgar

mahallasidagi mehmonxonada, shundan keyin Beglar mahallasidagi ko'zi o'zlar internat-maktabida faoliyat olib borgan[3]. O'quv dargohiga 1985 yilda Qashqadaryo viloyat pedagogik xodimlar malakasini oshirish instituti maqomi berilgan. 1991 yilda o'quv maskani shahardagi A.Navoiy mahallasidagi yangi qurilgan 625 o'rinli binoda[4] faoliyatini davom ettirgan. Yangi binoni zarur o'quv jihozlari bilan ta'minlanishida institut rahbari S.Saidovning xizmatlari katta bo'lgan[5].

1970 yillargacha bo'lgan davrda o'qituvchilarni malaka oshirishiga e'tibor kam bo'lib, og'ir sharoitda domlalar ishlashgan. Xonalar yetishmasligidan Qarshi shahridagi ba'zi maktablar sinfxonalarida o'qituvchilarning qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilgan[6]. Keyingi yillarda respublikada, jumladan Qashqadaryo oblastida ham o'qituvchilar miqdori ko'payib borgani sayin malaka oshirish instituti o'quv kurslariga keladigan pedagoglar soni ham ortib borgan.

Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti oblast rayon va shaharlaridagi xalq maorifi bo'limlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirib kelgan. Xalq maorifi bo'limlarida metodika xonalari tashkil etilgan bo'lib, ular orqali o'qituvchi va maktab rahbarlari oblast o'qituvchilar malakasini oshirish institutiga, K.D.Ushinskiy nomidagi respublika o'qituvchilar malakasini oshirish va Samarqand davlat pedagogika instituti qoshidagi rahbar kadrlar tayyorlash institutlariga yuborilib turilgan.

XX asrning 70-80 yillarida oblast o'qituvchilar malakasini oshirish institutida ish kabinet tizimida tashkil qilingan bo'lib, boshlang'ich ta'lim kabineti mudiri A.Abrayev, E.Temirov, o'zbek tili va adabiyoti kabineti mudiri U.Kenjaye, rus tili va adabiyoti kabineti mudiri G.Bramatkina, chet tili kabineti mudiri X.Boltayev, tarix-jamiatshunoslik va sovet davlati huquqi asoslari fani kabineti mudiri T.Suvanov, matematika kabineti mudiri N.Jo'rayev, fizika va astronomiya kabineti mudiri R.Nuriddinov, geografiya kabineti mudiri U.Haydarov, ximiya kabineti mudiri Z.Ismoilov, biologiya kabineti mudiri B.Normurodov, muzika kabineti mudiri B.Mahmudov, tasviriy san'at va chizmachilik kabineti mudiri J.Jilovov, tarbiyaviy ishlar va maktabdan tashqari mussasalar kabineti mudiri S.Nasimov, maktab-internat, bolalar uylari, kuni uzaytirilgan gruppalar kabineti mudiri J.Abdiyev, H.Haydarov, o'quv texnika vositalari kabineti mudiri X.Ahmedov, kechki ta'lim kabineti mudiri A.Qudratov, A.Jabborovlar hamda pedagog-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan.

1980 yillarning oxirlaridan institutda fanlar yo'nalishida kafedralar tashkil topgan. Masalan, 1989 yil 1 oktabrida "Ijtimoiy bilimlar va ma'naviyat asoslari" kafedrasi tashkil etilgan. Kafedra 5 shtat birligida faoliyatini boshlab, dotsent E.Toshtemirov kafedra mudiri bo'lgan[7].

Kurs tinglovchilarining siyosiy, ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik tayyorgarligini yanada yaxshilash maqsadida kurslarga ma'ruzachilar sifatida Qarshi davlat pedagogika institutining olimlari taklif etilgan. Jumladan, biologiya fanlari doktori Sh.Qurbonov, tibbiyot fanlari doktori B.Aminov, dotsentlar X.Ro'ziyev, A.Xolmurodov, A.Esrigaliyev, G.Mazitova, S.Zaxarov, S.Toshev kabilar[8]. Biroq, ayrim yo'nalishlarda mutaxassislar yetishmagan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1978-1979 o'quv yilida Qashqadaryo oblast maktablarida 1100 ga yaqin chet tili o'qituvchilari faoliyat olib borgan bo'lib, ularning 429 nafari nemis tili, 483 nafari ingliz tili, 165 nafari fransuz tili, 13 nafari ispan va boshqa tillarda yoshlarga saboq berib kelgan. Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti mutaxassis bo'lmaganligi sababli fransuz tilidan bo'ladigan kurs uchun Toshkentdagi Markaziy malaka oshirish institutidan va Toshkent davlat chet tillar institutidan lektorlar chaqirishga to'g'ri kelgan.

Institutda bilim saviyasi va malakasini oshirgan o'qituvchilar oblast maktablarida darslarni ko'rgazmalilik asosida, texnika vositalaridan unumli foydalangan holda tashkil qilib, buning natijasida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil qilgan. Masalan, Qarshi shahridagi 15-maktabni ingliz tili fani o'qituvchisi V.Rujena, 9-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi U.Qiyamova, Shahrisabz rayon Ilich nomli maktabning fransuz tili fani o'qituvchisi A.Hasanov, Kitob rayon Oxunboboyev nomli maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi M.G'affarov va ko'plab chet tili fani o'qituvchilar nomini keltirish mumkin[9].

Institut o'qituvchilarning malaka oshirish kursidan o'tgandan keyingi ish samaradorligi kuzatib borilgan va ularning ishini ommalashtirib borgan. Misol uchun, 1983-1984 o'quv yilida G'uzor rayon Oxunboboyev nomli 4-o'rta maktabning nemis tili fani o'qituvchisi B.Ernazarov, Qarshi shahridagi 1-o'rta maktabning fransuz tili fani o'qituvchisi V.Qodiraliyevning ish faoliyati ommalashtirilgan[10]. 1985 yilda Qarshi shahar M.Gorkiy nomli o'rta maktabning muzika tashkil etilgan chet tili xonalari mutlaqo talabga javob bermagan. Chet tili xonalari hech qanday ko'rgazmali qurol va texnika vositalari bo'lmagan[11].

Oblast maktablarida chet tili xonalari tashkil qilingan. Bu borada ayniqsa Kitob rayon, Shahrisabz shahar va rayoni, Yakkabog' rayonlarida chet tili xonalari talab darajasida tashkil qilingan. Biroq, Koson, Chiroqchi, Ulyanov, Dehqonobod, Qamashi rayonlaridagi ayrim maktablarida tashkil etilgan chet tili xonalari mutlaqo talabga javob bermagan. Chet tili xonalari hech qanday ko'rgazmali qurol va texnika vositalari bo'lmagan[12].

1984 yilda oblast malaka oshirish institutida rejalar bajarilmasdan, bir qator kamchiliklar kuzatilgan. Shu yili institutda 4867 nafar pedagogning malakasini oshirishni rejalashtirgan bo'lib, reja 4292 taga bajarilib, 575 kishiga bajarilmay qolgan. Rejalarning bajarilmay qolishida rayon, shahar xalq maorifi bo'limlarining o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashmaganligi, metodika kabinetlarining prespektiv rejalarning mavjud emasligi, hisobot ishlarining durust bo'lmaganligi sabab bo'lgan.

Kurslarga o'qituvchilar belgilangan sanalarga yetib kelmasligi holatlari uchrab turgan. Bunday holatlar Dehqonobod, Bahoriston, Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog' rayonlaridan kelgan pedagoglar orasida uchragan[13]. Ayrim hollarda kurslarga kelgan o'qituvchilar ko'plab dars qoldirishgan, ularga "Sertifikat" o'rniga "Ma'lumotnoma" berilgan. Shuningdek, kursga kelib ro'yxatdan o'tib, ketib qolish holatlari kuzatilgan.

Oblast malaka oshirish institutida fan yo'nalishlari bo'yicha tashkil qilingan kabinetlar tomonidan metodik mahsulotlar tayyorlanib, rayon, shahar xalq ta'limi bo'limlari orqali maktab o'qituvchilariga yetkazilgan. Masalan, 1985 yilda institut biologiya kabineti tomonidan "O'quvchilarga ularning mehnat qobiliyatini hisobga olgan holda jinsiy va gigiyenik tarbiyani amalga oshirish masalalari" mavzusidagi metodik mahsulot tayyorlanib, yetkazilgan[14]. Shu bilan birgalikda, Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti tomonidan chiqarilgan qo'llanma, buyruqlar va metodik ko'rsatmalar ham oblast maktab o'qituvchilariga yetkazilib borilgan. Bu qo'llanmalar o'qituvchilar uchun ijobiy natija bergan.

1985 yilda Qashqadaryo oblastida 30 mingga yaqin o'qituvchilar bo'lib, ularning ko'pchiligini, ya'ni 5584 nafari boshlang'ich sinf o'qituvchilari tashkil qilgan. O'qituvchilar malakasini oshirish institutida shu yili 682 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish reja qilingan, reja 709 taga ortig'i bilan bajarilgan. Fizika va astronomiya fani kurslariga 152 nafar o'rniga 158 taga bajarilgan. Oblast biologiya fani o'qituvchilarini malakasini oshirish 1985 yilning fevral, aprel, may, iyun, sentabr, noyabr,

dekabr oylarida tashkil etilgan bo'lib, reja (210/211) bajarilgan.

Biroq, ayrim yo'nalishlarda rejalar bajarilmasdi. Masalan, oblast muzika fani o'qituvchilari malaka oshirishi may va oktabr oylarida tashkil qilingan bo'lib, may oyida rejada 30, 25 taga, oktyabr oyida esa rejada 30, 28 taga bajarilgan[15].

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda fan olimpiadalari, pedagogik o'qishlarni tashkil etgan. 1983 yil fevral oyida oblast malaka oshirish instituti va Qarshi davlat pedagogika instituti hamkorligida Shahrisabz shahrida "Yosh lingvistlar" olimpiadasini o'tkazdi. Olimpiadada Qarshi shahar 9-o'rta maktabni X sinf o'quvchisi Bekbayeva Tanya, 43-maktabning VIII sinf o'quvchisi Shokirova Farida, Shahrisabz shahar Gogol nomli o'rta maktab o'quvchisi Yarulina Galyalar muvaffaqiyatli qatnashib, O'zbekiston maorif ministrligi faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan[16].

Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti Qashqadaryo oblast xalq maorifi bo'limi, Qarshi davlat pedagogika instituti, Qashqadaryo oblast hunar-texnika bilim yurtlari boshqarmasi hamkorligida oblast o'qituvchilarining "Pedagogik o'qishlari" tashkil etilgan. Masalan, 1984 yil 19 fevralida "Maktablar va hunar-texnika bilim yurtlarida o'quvchilarni mehnat ta'limidan kasbga yo'llashni tarbiyalash tajribasidan", 1987 yil 15 fevral sanasida "Dars samaradorligini oshirish - ta'lim va tarbiya protsessini tashkil qilishning asosiy formasidir" mavzularida[17] o'tkazilgan pedagogik o'qishlarda turli mavzularda ma'ruzalar tinglangan. Buning natijasida pedagoglar o'zaro tajriba almashishgan, darslar sifatini

oshirish maqsadida ko'rsatmalar berilib, ilg'or pedagogik usullardan foydalanishni takomillashtirib borishgan.

Shuningdek, maktab, maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiya muassasalariga metodik ishlarni yo'lga qo'yish, uning sifat samaradorligini oshirish maqsadida rayon va shahar xalq maorifi bo'limlarida pedagogika kabinetlari tashkil qilingan. Oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti ular bilan hamkorlikda sayyor o'quvlar, qator tadbirlarni o'tkazib kelishgan. Biroq, kabinet lektorlari tomonidan tashkil etilgan sayyor o'quvlari davrida maktab o'qituvchilarining muntazam bo'lmasligi, ya'ni qishloq ho'jaligi ishlariga jalb etilishi rejadagi ishlarni bajarishga to'sqinlik qilgan.

Shunday bo'lsa-da, oblast pedagog-o'qituvchilari o'z mahoratlarini oshirib borib, yuqori natijalarga erishib, nafaqat respublikada, balki Ittifoq miqyosida ham e'tirof etilgan. 1990 yilgi ma'lumotga ko'ra, birgina Kitob shahri miqyosida 25 nafar pedagog O'zbekiston SSR Xalq ta'limi a'lochisi, 1 nafar o'qituvchi SSSR Xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishoni bilan taqdirlangan[18].

Xulosa va takliflar. Qashqadaryo oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti 1952 yilda Qarshi shahrida tashkil etilgan. Institut dastlab shahardagi moslashtirilgan binolarda, 1991 yildan yangi binoda faoliyat ko'rsata boshlagan. Tadqiqot yillarida o'quv dargohi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti, Qashqadaryo oblast xalq maorifi bo'limi, Qarshi davlat pedagogika instituti kabi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib bordi, oblastdagi o'qituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilarning malakasini oshirib, mahoratli pedagoglarning ish tajribasini ommalashtirdi va qator tadbirlarni ham amalga oshirdi. Shu bilan birgalikda, institut faoliyatida xato va kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi joriy arxivi.
2. Mahmudov B. Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. –Qarshi: Nasaf, 1999. –B. 38.
3. Dala yozuvlari: 2025 yil, fevral. Axborotchi Toshev Suyar. 1944 yilda tug'ilgan. Qarshi shahri.
4. Dala yozuvlari: 2025 yil, mart. Axborotchi Norov Qahramon. 1969 yilda tug'ilgan. Qarshi shahri.
5. Dala yozuvlari: 2025 yil, fevral. Axborotchi Nasimov Sayfi. 1947 yilda tug'ilgan. Qarshi shahri.
6. Dala yozuvlari: 2025 yil, fevral. Axborotchi Jilovov Jomurod. 1946 yilda tug'ilgan. Qarshi shahri.
7. Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi joriy arxivi.
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 10-varaq.
9. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 3-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 21-ish, 13-varaq.
11. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 16-varaq.
12. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 3-varaq.
13. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 35-ish, 2-varaq.
14. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 13-varaq.
15. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 1, 14-15 varaqalar.
16. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 21-ish, 12-varaq.
17. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 59-ish, 2-56 varaqalar.
18. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 545-fond, 1-ro'yxat, 66-ish, 2-varaq.



UDK: 94:339(575.1)

Nurullo TURSUNOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori

E-mail: tursunov22@mail.ru

Navro‘za NORMENGLIYEVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Renaissance university dotsenti, t.f.d D.Uralov taqrizi asosida

“ADIB SOBIR TERMIZIY” NOMLI SURXONDARYO VILOYAT AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI TARIXI

Аннотация

Mazkur maqolada “Adib Sobir Termiziy” nomli Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi faoliyati yoritilgan. Kutubxona Bugungi kunda viloyat aholisining ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. So‘ngi yillarda markaz faoliyati tubdan takomillashtirilib, zamonaviy axborot-kutubxona tizimiga aylantirildi. Kutubxona fondi boyitilib, elektron axborot resurslari yaratildi va foydalanuvchilarga interaktiv xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Maqolada, shuningdek, kutubxonaning Adib Sobir Termiziy nomi bilan atalishi hamda bu nom orqali mintaqaning boy adabiy-ma’naviy merosini targ‘ib qilishdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Adib Sobir Termiziy, Surxondaryo viloyati, axborot-kutubxona markazi, kutubxona tarixi, ma’naviy-ma’rifiy meros, kutubxonlik madaniyati, elektron kutubxona, madaniy markaz, axborot texnologiyalari, ilmiy-ma’rifiy faoliyat.

ИСТОРИЯ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОГО ЦЕНТРА СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ ИМЕНИ АДИБА СОБИРА ТЕРМИЗИ

Аннотация

В данной статье освещаются этапы становления, развития и современная деятельность информационно-библиотечного центра Сурхандарьинской области, названного в честь Адиба Сабир Термизий. В настоящее время библиотека занимает важное место в духовно-просветительской жизни населения области. В последние годы деятельность центра была кардинально усовершенствована и преобразована в современную информационно-библиотечную систему. Фонд библиотеки был пополнен, созданы электронные информационные ресурсы, налажено предоставление интерактивных услуг пользователям. В статье также подчеркивается значение присвоения библиотеке имени Адиба Сабир Термизий и её роль в популяризации богатого литературного и духовного наследия региона.

Ключевые слова: Адиб Сабир Термизий, Сурхандарьинская область, информационно-библиотечный центр, история библиотеки, духовно-просветительское наследие, культура чтения, электронная библиотека, культурный центр, информационные технологии, научно-просветительская деятельность.

HISTORY OF THE SURKHANDARYA REGIONAL INFORMATION AND LIBRARY CENTER NAMED AFTER ADIB SOBIR TERMIZI

Annotation

This article explores the formation, development stages, and current activities of the Surkhandarya Regional Information and Library Center named after Adib Sobir Termizi. Today, the library plays an important role in the spiritual and educational life of the region’s population. In recent years, the center’s activities have been fundamentally improved and transformed into a modern information and library system. The library collection has been enriched, electronic information resources have been developed, and interactive services are now provided to users. The article also highlights the significance of naming the library after Adib Sobir Termizi and its role in promoting the region’s rich literary and spiritual heritage.

Key words: Adib Sobir Termizi, Surkhandarya region, information and library center, library history, spiritual and educational heritage, reading culture, electronic library, cultural center, information technologies, scientific and educational activities.

Kirish. Surxondaryo Viloyat kutubxonasi 1936-yilda shahar kutubxonasi sifatida tashkil etilgan. Tashkil etilganda kutubxona fondi 20 ming nusxani tashkil etardi. Viloyat ijoriya qo‘mitasining 1942-yil 1-yanvardagi 1-sonli buyrug‘i bilan Termiz shahar kutubxonasi bazasida Surxondaryo kutubxonasi tashkil qilindi. O‘sha vaqtda kutubxonaga 5 nafar kutubxonachi shtati bor edi. Kitob fondi 40 ming nusxaga yaqin, kitobxonlari esa 500 kishini tashkil etardi [4].

1948-yilda kutubxona 27 nomda markaziy, Respublika va viloyat adabiyotshunoslik jurnallarini olgan. 1948-yildayoq Ittifoq Markaziy kutubxonalari tajribasidan foydalangan Surxondaryo viloyat kutubxonasi viloyatdagi rayon kutubxonalarida sirtqi abonoment olishga kirishdilar. 1949-yil kutubxonada “O‘zbekiston 25 yoshda” kitob ko‘rgazmasi bezatildi. O‘sha yillarda o‘zbek xalqida madaniyat rivojlandi.

Viloyatlarda majburiy ta’lim haqidagi qonun asosida qishloqlarda 7 yillik va shaharlarda 10 yillik maktab, madaniyat uylari, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo qilindi. Kutubxona doimiy ravishda kitoblar bilan to‘ldirib borildi. O‘quvchilar soni ham oshgani sari kutubxonachilar kitobxonlarga qulayliklar yaratish maqsadida ish soatlarini o‘zgartirtishdi. Avval soat 14:00 dan ishlashgan va keyinchalik ertalab soat 10:00 dan kech soat 22:00 gacha ishlay boshlashdi [4].

Ijroiya qo‘mitasining 1952-yil 3-martdagi 369-sonli qaroriga binoan rus yozuvchisi Nikolay Vasilevich Gogol vafotiga 100 yil to‘lishi munosabati bilan Termiz shahridagi viloyat kutubxonasiga N.V.Gogol nomi berildi. 1954-yilga kelib kutubxonada 15 o‘rinlik o‘quv zali va kitob berish uchun alohida bo‘lim qilishdi. Kutubxonada shtatlar kam, kitoblarni

qayta ishlashga javob beradigan maxsus xodim ham yo'q edi. Kutubxona viloyat madaniyat boshqarmasi bilan bitta binoda joylashgan edi. Kutubxona ilk ochilgan kundan boshlab Mariya Pavlovna Kobaykova direktor edi. U 1956-yilga qatar kutubxonani boshqardi. Kutubxona ishida tabiiy-ilmiy, qishloq xo'jaligi adabiyotlari, tibbiyot, sport va san'at hamda badiiy adabiyotlarni targ'ib qilish muhim o'rin kasb etgan. Kutubxonalar aro abonement va sirtqi abonementda 12 ta kutubxona yozilgan bo'lib, ularga 16 nusxa kitob berilgan. Kutubxona kitoblari: iqtisodchilar, ishchi yoshlar, sirtqi bo'lim talabalari, qishloq xo'jaligi mutaxassislari kabi guruhlarga ajratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Surxondaryo viloyatidagi kutubxona sohasida amalga oshirilgan islohotlar va axborot-resurs markazlarining rivojlanish jarayonini o'rganishda so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy-uslubiy ishlar, hukumat qarorlari, kutubxonashunoslik bo'yicha darslik va maqolalar muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019-yildagi PQ-4354-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori [2] soha rivoji uchun mustahkam huquqiy asos vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, S.Tursunov [6], B.Murtazayev [6], J.Cho'tmatov [8] kabi mahalliy tarixchilar va adabiyotshunoslar tomonidan yozilgan maqolalarda Adib Sobir Termiziy shaxsiyati, uning adabiy merosi va Surxondaryo hududidagi madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Bu esa kutubxonaga uning nomini berish tarixiy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, S.Yuldosheva [7] tomonidan yozilgan "O'zbekistonda kutubxonachilik sohasining rivoji" mavzusidagi tadqiqot ishida ham Surxondaryo viloyatidagi kutubxonalar faoliyatiga alohida urg'u berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. "Adib Sobir Termiziy" nomli Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi tarixiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy-tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, analogik tahlil va boshqa bir qator metod va usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. 1950-yili kutubxona katalogini tuzish ishi boshlandi. O'sha yili kutubxonaga bibliograf shtati ham berildi. 1957-yilda kutubxonada kitoblarni qayta ishlash bo'limi alohida bo'lim sifatida ajratildi. Viloyat kutubxonasida 1960-yil 31-avgustdan bibliografiya bo'limi tashkil qilindi. Kutubxonaning birinchi bibliografi Usmon Cho'tboyev edi [4].

1962-yilda ijtimoiy-siyosiy mavzuda 32 ta, manbaviy-ilmiy mavzuda 4 ta, fan va texnika bo'yicha 4 ta, qishloq xo'jaligi mavzusida 4 ta, estetik tarbiya bo'yicha 5 ta, badiiy adabiyotlardan 16 ta bibliografik obzorlar o'tkazilgan, 3 ta kutubxona plakati tashkil qilingan [4]. 1968-yilga kelib kutubxonada 7 ta katalog bo'lib, ular alfavit sistemali, o'zbek tilidagi adabiyotlarning sistemali katalogi, predmet, topografik, badiiy adabiyotlar sarlavhalarining alfavit katalogi, bosma va annotatsiyalangan kartochkalarining alfavit kataloglaridan iborat edi.

1970-yili kutubxonada o'zbek tilidagi adabiyotlarning alfavitli katalogi tuzildi. 1972-yil mamlakatning 50 yilligi munosabati bilan kutubxonaning muhim vazifalaridan biri ko'p millatli adabiyot asarlarini har tomonlama va navbati bilan targ'ib qilish edi. Va yubileyda bunga erishildi.

1972-yil 27-dekabr kuni kutubxona o'quv zalida she'riyat dalar klubining navbatdagi yig'ilishi bo'ldi. Yig'ilish "Qardosh xalqlar she'riyati" deb nomlangan edi. O'quv zalida "Vatanimni kuylayman" nomli kitob ko'rgazmasi tashkil qilingan bo'lib, kitobxonlar ko'plab shoirlar va qardosh respublikalar poeziyasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

1991-yil Surxondaryo viloyat kutubxonasi uchun unutilmas yil bo'ldi. Shu yili ajoyib inson Usmon Cho'tboyev rahbarligidagi N.V.Gogol nomidagi viloyat kutubxonasi ma'muriyati tomonidan tushgan taklif hamda viloyat ijoriya qo'mitasi huzuridagi atamalar komissiyasining 1991-yil 22-apreldagi 1-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari viloyat kengashi ijoriya qo'mitasi "N.V.Gogol nomidagi viloyat kutubxonasi nomini o'zgartirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Ana shu qarorga binoan N.V.Gogol nomidagi viloyat kutubxonasiga "Adib Sobir Termiziy" nomi berildi. 1992-yil kutubxonada 42 ta dolzarb mavzularda kitob ko'rgazmalari o'tkazildi. Respublikada 17 mingdan ortiq har xil turdagi kutubxonalar bo'lib, ulardan 6791 nafari universal va ommaviy davlat kutubxonalaridir [5].

1991-yil O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng jamiyatning barcha qatlamlarida o'zgarishlar yuz berdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish davri boshlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham milliylikka e'tibor oshdi. Milliy urf-odatlarimizni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni qaytadan o'rganish, tahlil qilish, ayniqsa, o'zbek millati tarixini yangi nuqtayi nazardan o'rganish masalasi, ma'naviyatni shakllantirish, rivojlantirish oldingi o'ringa chiqdi. Diniy qadriyatlar qaytadan tiklandi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyalarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak", - deb ta'kidlab o'tgan edi [1]. Ayniqsa, mamlakatimizda yosh avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar va insonparvar kishilar sifatida tarbiyalashda milliy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlarni o'rganish, to'plash, zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish zarur. Shundaygina milliy qadriyatlar qimmat oshadi, kelgusi avlodlarga yanada boyiganda yetib boradi. Kitoblar o'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarning tarixiy an'alariga sadoqat, o'zbek xalqining yuksak maqsadlariga ishonch ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi [8].

Mahalliy shoir va yozuvchilar ijodini targ'ib etish maqsadida B.Sodiqov, K.Abduljalilov, B.Yoriyevlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Bu tadbir O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining 60 yilligiga bag'ishlandi.

Hozirgi kunda viloyatda Respublika madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi kutubxonalar soni 430 taga yetdi. Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat universal-ilmiy kutubxonasi ana shu kutubxonalarga uslubiy markazlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 16-iyundagi 208-sonli qarori asosida Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan bunyod etilgan Adib Sobir Termiziy nomli Surxondaryo Viloyat Axborot-kutubxona Markazi yangi binosi va "Kitob olami" hamda "Kitob qahvaxonasi (Book-cafe) maskan"larining 2018-yilning 20-yanvarida ochilish marosimi bo'lib o'tdi va bino o'z faoliyatini boshladi [3].

Birinchi qavatda "Kitob olami" do'koni orqali Surxondaryo viloyati aholisining barcha qatlamlari uchun nashr qilinayotgan kitob mahsulotlari savdosi yo'lga qo'yilgan. Qulay mutolaa muhitini yaratish maqsadida 59 o'ringa mo'ljallangan "Kitob qahvaxonasi"da barcha sharoitlar yaratilgan. 56 o'ringa mo'ljallangan garderoab, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati, ilmiy-metodika xizmati, axborot-kutubxona hujjatlarini butlash xizmati,

yig'ma elektron katalog sektori, 50 o'rinli o'quv zali, 24 o'rinli huquqiy axborot zali, kitob ko'rgazmalari tashkil etish uchun zal faoliyat yuritmoqda.

Ikkinchi qavatda Ma'muriyat, Qabulxona, buxgalteriya, axborot-bibliografiya xizmati, 36 o'ringa mo'ljallangan kompyuter zali, 90 o'rinli Wi-Fi hududi, 16 o'rinli o'quv markazi faoliyat yuritib kelmoqda.

Bugungi kunda kutubxonaning kunlik xizmat ko'rsatish quvvati 300 o'ringa mo'ljallangan. Bugungi kunga qadar Axborot-kutubxona markazining umumiy fondi 234 342 nusxada, foydalanuvchilar soni 66 364 nafar, kitob berilishi 114 577 nom/nusxani tashkil etadi [5].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, amaliy va

fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini yo'lga qo'yish, aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy-madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Surxondaryo viloyatida aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni qondirish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish, mavjud axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, chop etilayotgan kitoblarni aholi o'rtasida ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish hamda ta'lim muassasalarida o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishni tizimli amalga oshirish ishlarini yo'lga qo'yish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O'zbekiston” NIU, 2020. – 480 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019-yildagi PQ-4354-son “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.06.2016-yildagi “Termiz shahrida “Adib Sobir Termiziy” nomidagi Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazining yangi binosini qurish to'g'risida”gi 208-son qarori.
4. Adib Sobir Termiziy nomli viloyat universal-ilmii kutubxonasi 60 yoshda. –Termiz. 1996. – 76 b.
5. Qosimova O. Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 358 b.
6. Tursunov S., Murtazoyev B. Termiziyilar ilmiy tafakkuri. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 280 b.
7. Yo'ldosheva S. O'zbekistonda kutubxonachilik sohasining rivoji. Oriental Art and Culture, (7), 2021. – B.260-268.
8. Cho'tmatov J. Termizning bezavol qal'alari yohud Termiz tarixi. – Toshkent. 2017. – 302 b.



UDK:393:398.3(575.114)

Barno UBAYDULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professor v.b
E-mail : barnomashrab@mail.ru.

Toshkent Iqtisodiyoti instituti professori, p.f.d Z.Rasulova taqrizi asosida

ABOUT TRADITIONS IN FUNERAL AND MEMORIAL CEREMONIES (ON THE EXAMPLE OF THE POPULATION OF THE FARISH DISTRICT)

Annotation

The article analyzes the traditions of burial and commemoration among the residents of Forish district on the basis of ethnographic materials and observations, and shows their preservation in modern conditions.

Key words: Ceremony, Farish, custom, district, burial, remembrance, deceased, tradition, people, Uzbek, population, village.

О ТРАДИЦИЯХ В ПОХОРОННЫХ И ПОМИНАЛЬНЫХ ЦЕРЕМОНИИ (НА ПРИМЕРЕ НАСЕЛЕНИЯ ФАРИШСКОГО РАЙОНА)

Аннотация

В статье на основе этнографических материалов и наблюдений анализируются похоронно-поминальные традиции жителей Фаришского района, показывается их сохранность в современных условиях.

Ключевые слова: Обряд, Фариш, обычай, район, захоронение, поминовение, покойный, традиция, народ, узбек, население, село.

DAFN VA XOTIRLASH MAROSIMLARDAGI AN'ANALAR HAQIDA (FORISH AHOLISI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada Forish tumani aholisi orasida saqlanib kelgan dafn va xotirlash marosimlariga oid an'analar etnografik materiallar va kuzatuvlar asosida tahlil qilingan, ularning zamonaviy sharoitda saqlanishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Marosim, Forish, urf-odat, tumani, dafn, xotirlash, marhum, an'ana, xalq, o'zbek, aholi, qishloq.

Kirish. Har qanday xalq hayotida an'analar alohida ahamiyat kasb etib, mazkur xalqning o'ziga xosligini saqlashga, ma'naviy me'rosini davom ettirish va boyitishga xizmat qiladi. Dafn va xotirlash marosimlari insoniyat tarixida muhim o'rin tutadi va har bir xalqning madaniy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek va tojik xalqi orasida ushbu marosimlar islom dini bilan uzviy bog'liq bo'lib, mahalliy urf-odatlar va etnik xususiyatlar bilan boyigan. Forish tumani aholi orasida saqlanib kelgan dafn va xotirlash marosimlari o'ziga xos an'analarga ega. Ushbu marosimlar nafaqat marhumga munosib xayrlashuvni ta'minlaydi, balki jamoaning ma'naviy birligini mustahkamlaydi.

Maqolaning maqsadi – Forish aholisi misolida dafn va xotirlash marosimlarining etnografik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berish va ushbu an'analar saqlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. An'anaviy oilaviy marosimlar dunyo xalqlari misolida ham[4], Markaziy Osiyo xalqlari misolida, shu jumladan, o'zbek xalqi misoli ham an'anaviy aspektida ko'p o'rganilgan [2] masalalardan hisoblanadi. Dafn va xotirlash marosimlari o'zbek etnografiyasida muhim tadqiqot mavzularidan biri bo'lib, bir qancha olimlarning e'tiborini tortgan.

M.H.Payzieva o'z dissertatsiyasida Toshkent shahri o'zbeklarining motam marosimlarini tadqiq qilib, ushbu marosimlarni to'rt bosqichga bo'lgan: joni uzilayotgan kishiga xizmat ko'rsatish, marhumni dafn etishga tayyorlash, mayitni dafn etish va marhum ruhini e'zozlash. Bu tasnif Forish aholisi an'alariga ham mos keladi. B.X. Karmisheva Farg'ona o'zbeklari orasidagi dafn marosimlarining arxaik ramziyligini o'rganib, ularning islomdan oldingi e'tiqodlar

bilan bog'liqligini ko'rsatgan. Q. Nasriddinov ham Qashqadaryo viloyati misolida o'zbek dafn va ta'ziya marosimlarining islomiy asoslari va mahalliy xususiyatlariga e'tibor qaratgan.

G.P.Snesarov esa Xorazm o'zbeklari orasidagi islomdan oldingi e'tiqodlar va marosimlarni tahlil qilib, ularning zamonaviy an'analarga ta'sirini ko'rsatgan. F. Tolipov Garasha qishlog'i misolida tarixiy-etnografik tadqiqot olib borgan bo'lib, unda mahalliy marosimlarning o'ziga xosligi ta'kidlangan. Ushbu manbalar Forish aholisi an'alarini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Forish tumaniga xos maxsus tadqiqotlarning yetishmasligi ushbu maqolaning dolzarbligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Forish tumani mahalliy aholisi orasidagi dafn va xotirlash marosimlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, asosan etnografik usullarga tayangan. Tadqiqot jarayonida bevosita va bilvosita kuzatuv, chuqurlashgan intervyu va mahalliy aholi bilan jamoaviy suhbatlar o'tkazildi. Forish tumanining qishloqlarida o'tkazilgan kuzatuvlar marosimlarning amaliy jihatlari tasvirlashga yordam berdi.

Tahlil va natijalar. Dafn va xotirlash bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlar insoniyat paydo bo'lganidan buyon doimiy ravishda turli sabablarga bog'liq holda o'zgarib borgan va ular har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan urf-odat va an'alarni o'zida mujassam etadi. Dafn va xotirlash bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlar tarkibiga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog'liq, balki motam tutish va u dunyo bilan bog'liq tasavvur va magik urf-odatlar, turli-tuman ta'qiqqlar, ehson va qurbonliklar, marosimiy yig'ilar, qabr toshlar, aza marosimlari va liboslari ham kiradi. Olima

M.H.Fayzieva shu mazmundagi urf-odat va marosimlarni to'rt bosqichga bo'ladi[9].

Forish tumani aholisi orasida ham dafn va xotirlash bilan bog'liq a'naviy urf-odat va marosimlar saqlanib kelmoqda. Dastlab, o'limga tayyorlanishgan. Aksariyat qishloqlarda insonning umri oxirlashayotganligi, bemorning ahvoli og'irlashganligi ayon bo'lgach, odatda uning yaqinlari va qo'ni-qo'shnilar har kuni kechqurun o'sha oilaga to'planishgan, bemordan xol-ahvol so'rab turganlar.

Qa'zoning yaqinligi belgilari sifatida, holsizlik, tildan qolish, tananing muzlab borishi, rangning oqarib ketishi va es-xushning yo'qolishi va boshqalarni ko'rsatishadi. Kishi vafot etganligiga to'la ishonch hosil qilingach, mayitning qo'l-oyoqlari to'g'rilanib, iyagi rostlab bog'langan. Oilada bu amallarni qiluvchi kishi bo'lmasa, darxol qo'shnilarga xabar berilib, keksaroq kishi bu ishini bajargan[18].

Xalq orasidagi tasavvurlarga ko'ri murdani ko'zi yoki og'zi ochiq bo'lsa, o'zidan keyin boshqalarni ham tortadi, deb tushunishgan[23].

Murdaning o'lim xabarini boshqalarga yetkazish ham asosiy amallardan hisoblanadi. Ko'pincha, janozaga mashinada yurib, baland ovoza baqirib aytilgan.

Marhumning o'z yaqinlari, qarindoshlariga nisbatan uni yuvish, kafanlash, janoza namozini o'qish, tobutini qabristongacha ko'tarib borib, uni dafn etish kabi haqlari bor[23].

O'zbek va tojiklarning islom dini bilan bog'liq an'analarida o'tgan kishini "mahtal qilmay" tezroq dafn etishga harakat qilishadi, ma'lumot berishlaricha, aks holda murda qotib qolishi mumkin. Boshqa tomondan xalq orasida iloji boricha murdadan qutilishga harakat qilishning sababi, murdadan qo'rqishga borib taqaladi [14].

Forish tumanidagi ko'p qishloqlarda mayitni yaqin qarindoshlari yuvishadi. O'likni yuvganlarga sarpo qilinadi: oyoq kiyim, ko'ylak, jenfer, ro'mol, qisqasi boshdan oyoq sarpolar beriladi, yana o'lgan odamning kiyimidan ham beriladi, aks holda "o'likning og'iri tushadi" deb ishonishadi[23].

Mojirum qishlog'idagi odatga ko'ra, kiyim-kechaklardan tashqari, marhumning yaqinlari va boshqa qarindoshlari hammasi qator turib asosan qarindoshlardan iborat yuvg'ichlarga pul ham berishadi[24].

Odatda janoza o'qish va unga qatnashishning ham ma'lum tartib-qoidalari bo'lgan. Marosimda asosan kattalar ishtirok etib, bolalar uydan tashqariga chiqarilmagan yoki ko'chadan hovliga kiritilmagan, bu janoza o'qib bo'linguncha davom etgan. Janoza o'qilayotganda sukunat lozim bo'lgan, ayollar yig'isi va barcha ro'zgor yumushlari to'xtatilgan, tik turganlar o'tirib olishgan[23].

Forish tumaning Sayyod va Mojirum qishloqlarida vafot etgan kishini bir kun "mehmon qilish" odati bo'lgan. Murdani mehmon qilish haqida F. Tolipov "agar kishi peshindan so'ng vafot etgan bulsa, ilgari qishloqda marxumni mehmon qilish odati bo'lgan. Boisi, uzoq masofadan keluvchi marxum yaqinlarini kutishga majbur bo'lingan va tashrif buyurgan kishilar ertasi kungi janozagacha marxum bilan birga bo'lishgan" –deb yozadi [18]. Biz olgan ma'lumotlarda axborotchilarimiz, hozirgacha bunday odat mavjudligini gapirishdi va bu odatning sababi, qadimdan kelgan an'ana sifatida baholandi.

Etnolog olim Q.Nasriddinov esa murdani "mehmon qilish" ikki sharoitda amalga oshirilganini yozadi: Birinchisi, marxum tushdan so'ng, yoki kech kirganda vafot etsa, uni ko'mish uchun vaqt bo'lmasligi yoki kerakli shart-sharoit yaratish (masalan, yuvuvchi, go'rkov, yoki kafanlik kabilar)ning iloji bo'lmasligi, bunday holda o'sha kuni ko'mishning iloji bo'lmagan; ikkinchisi marxum rahbar lavozimda ishlagan bo'lsa, 3 kungacha ko'milmagan – bu sho'rolar tizimida paydo bo'lgan odat [8].

To'plangan ma'lumotlarga ko'ra, "mehmon qilish"ning uchinchi sababi ham bo'lgan, masalan, yaqin kishisi (farzandlari, aka-uka yoki opa-singlisi) uzoqda bo'lsa, ular ham marxumni oxirgi marta ko'rishlari uchun yetib kelishlarini kutishgan[23].

O'zbeklar va tojiklar orasida murda chiqqan uyda 3 kungacha ovqat qilinmaslik odati keng tarqalgan. Ma'lumotlarga ko'ra, mayit chiqqan xonadonda dastlabki uch kunda taom tayyorlash mumkin emasligi Islom shariatida ham qayd etilgan: "Shu uch kun ichida mayit chiqqan xonadonda ovqat qilinmaydi. Ta'ziya bildirishga kelgan odamlarga dasturxon solinmaydi, ziyofat berilmaydi. Musibat yetgan xonadon ahli qayg'uli bir holatda turganda ular uchun mehmonlarga qarash, ularga osh-non tortish musibat ustiga musibatdir" [7]. Bunday odat ya'ni "Marhum chiqqan uyda uch kecha-kunduz go'shtli taom pishirish ta'qiqlangan"ligi "Avesto"da qayd etilgan[1].

Forishda ham bu odatlarga amal qilinadi. Azador bo'lgan xonadonga turli yeguliklar va taom tayyorlab kelishgan. Bular osh, moshxo'rda, go'ja, bo'g'irsoq, qand-qurlardan iborat bo'lgan. Ammo, agar marhumni "mehmon qilish"sa, unda "shom oshi" qilinib kelgan mehmonlarga tarqatiladi. Ko'p joylarda marhumga atab pishirilgan birinchi osh "qora osh" deb ham atalgan.

Masalan, Qashqadaryoda "qora oshi" marxum xonadonida emas, qo'ni-qo'shnilarnikida tayyorlanib tarqatilgan[8]. Bunday odat O'zbekistonning turli xududlarida turlicha ko'rinishda bo'lgan. Aslida shom so'zining ma'nosi qorong'i tushishini bildiradi. Bizning fikrimizcha, shom oshi va qora osh mazmunan motam belgisi – qora kun ma'nosida ishlatilgan. Mashhur olim B.Karmisheva ham shunga yaqin fikr bildirib, tojiklarda "oshi siyoh" aynan motam belgisi ekanini ta'kidlaydi [5].

O'lgan kishi dafn etilgandan so'ng, uchinchi kuni kir yuviladi ya'ni o'lgan odamning kiyimlari yuviladi va qurigach, hamma yig'ilib o'tirgan joyga o'rtaga tashlanadi kim xoxlasa bu kiyimlardan tanlaganini oladi[24].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, dafndan keyingi urf-odatlar va marosimlar aza tutish va ularni xotirlash, ruhini shod etish bilan bog'liq marosimlari ham muhim o'rin tutadi.

Aza marhum vafot etgan kundan tutiladi. Bu davrda azadorlar (ayniqsa ayollar) o'zlarini turli xursandchilik marosimlaridan, to'y-tomosh va bayramlarga borishdan tiyganlar. Bunday vaqtda ayollar taqinchoqlar taqmagani, hatto o'zlariga xushbo'y narsalar ham sepmaganlar. Aza tutish muddati ham marhumga qarindoshlik darajasidan kelib chiqib belgilangan va vafot etgan kishining "yili", "yil oshi"ga qadar davom etgan.

O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Forishda ham marhum vafot etgan uchinchi kuni, hudoyi qilinadi. Qo'ylar so'yib qozonga solinadi. Mojirum qishlog'ida shu kuni sho'rva ham tayyorlanadi. Sayyod qishlog'ida esa palov, oq osh va atala (xolvaytar)qilinadi[25]. Oq osh degani bu ayronan tayyorlangan, xamirli suyuq taomdir. Oldin ayron tayyorlanadi va unga xamir kesib solinadi[24]. Erkaklarga va ayollarga alohida dasturxon tayyorlanadi. Hovli ham biron mato bilan o'rtadan to'silib, ayollar va erkaklar uchun alohida kirish jolari qilinadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, agar marhum 63 yoshdan o'tgandan bo'lsa, kelganlarga

mato, sochiq, "sarandoz" – ro'mollik beriladi. Yoshlarga vafot qilsa berilmaydi. O'rtacha, 5-6 ro'lon paplin matosi, 200-300 dona sochiq ketadi[24]. Yaqin qarindoshlar ham o'zlaridan materiallar olib kelib yordam berishi mumkin.

Forishda har juma marhumni ruhi uchun osh pishirish, qo'y so'yish odatlari bor, shu kuni qarindoshlar o'tirib Qur'ont tilovat qilishadi. Ayniqsa, mojirumda bunga qattiq amal qilishadi[24].

Yaqin yaqingacha, marxumning xotirlash uchun “yetti”, “yigirma”, “qirq”, “yil” marosimlari o'tkazilgan. Ayniqsa, yigirma, qirq marosimlari katta e'tibor bilan o'tkazilgan. Lekin, so'nggi yillarda marosimlarni qisqartirish, ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik borasida olib borilgan chora tadbirlar natijasida, bu marosimlarni o'tkazish kamayib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, keksa kishi vafot etsa, 33 kuni, yoshroq odam vafot etsa 37 kuni 40 marosimini o'tkazishgan. “Ilgari aza qattiq tutilgan, aza kiyim kiyimida yurilgan, endi odamlar “ilgarigi kabi aza tutmayapti”. Ammo Xayit 3 marta bo'ladi” [25].

Sayyod qishlog'ida ham uchta hayit bo'ladi va bunda faqat bir ovqat qilinadi, hotirlash uchun kelganlar o'sha taomni yeb ketaveradi. Yilini berganda quyuq taom sifatida osh va suyuq taom sifatida go'ja yoki qaylali biron suyuq ovqat qilinadi[25].

Mojirum qishlog'ida Ramazon hayitida manti qilishadi, agar marhumning yil berish shu oy (Ramazon)ga to'g'ri kelsa, osh ham qilishadi. 20-30 kilo lahm mol go'shtini olib kelib, manti tayyorlashadi, buning uchun qo'ni-qo'ni ayollar, yaqin qarindoshlar, hamma yordamga keladi. Manti sovub ketmasligi uchun tayyorlangan mantilarni 8-9 ta katta katta tog'oralarga solib o'rab qo'yishadi va mehmonlar kelgach, tarelkaga 3 donadan solib berishadi. Manti albatta qilinishi lozim marosim taomi sanaladi[24].

Keltirilgan ma'lumotlardan o'zbek va tojiklarning an'anaviy marosimlari, deb belgilangan dafn va xotirlash marosimlari juda katta harajatlar va ovragarchiliklar evaziga amalga oshirilgani ma'lum bo'ldi. Eng qizig'i, bu serharajat odatlarning aksariyati muqaddas dinimizda ham ko'rsatilmagan ekan. Ulamolarning aniqlashicha, “O'lim bo'lgan xonadonda qurbonlik qilish, xayit bayramlarida o'lgan

xonadonlarga borishni shariat ham, xadislarda ham ko'rsatma berilmagan. 7, 20, 40, yil bularning hammasi o'ylab topilgan odatlardir” [7]. Demak, ortiqcha dabdabali va serharajat marosimlarimizning tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir. Shu bois, 2012 yildayoq “To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlar xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida” Toshkent shahar Xalq deputatlari kengashining qarori qabul qilingan edi[21]. Bundan tashqari, Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan xalqimiz o'z turmush faoliyatini yaxshilashi uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi[22].

Xulosa va takliflar. Forish tumani aholisi orasida dafn va xotirlash marosimlari mahalliy xalqning an'anaviy qadriyatlarini va islomiy urf-odatlarining sintezini aks ettiradi. Ushbu marosimlar nafaqat marhumga munosib xayrlashuvni ta'minlaydi, balki jamoaning ma'naviy birligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga ushbu marosimlar mahalliy xalqning ma'naviy-axloqiy normalari va tarixiy merosini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Forishdagi an'analar islomiy qoidalarga asoslanadi, lekin mahalliy tasavvurlar va etnik xususiyatlar bilan boyigan.

Forish aholisining dafn va xotirlash marosimlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun keng ko'lamli etnografik ekspeditsiyalar tashkil qilish lozim. Bu ushbu an'analarning zamonaviy sharoitda saqlanishi va yoshlarga o'tkazilishini xarakterini ochib beradi.

Marosimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ommalashtirish maqsadida maxsus nashrlar va ma'rifiy dasturlar ishlab chiqish Forish aholisining madaniy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам тарж. – Тошкент: Шарк, 2001.
2. Андреев М.С. Таджики долины Хуф (верховья Аму-Дарьи). Изд. АН Тадж.ССР. – Сталинабад, 1953.
3. Бикжанова М.А. Семья в колхозах Узбекистана (на материалах колхозов Наманганской области) –Ташкент: Изд. АН УзССР, 1959.
4. Геннеп А. В.Обряды перехода: систематическое изучение обрядов. – М., 1999.
5. Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии (историко-этнографические очерки). – М: Наука, 1986.
6. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л.: Наука, 1969
7. Мусибат етган хонадон аҳлига таъзия билдириш ва баъзи маросимлар одоби ҳақида фатво // Мовароуннахр мусулмонлари идораси уламолар ҳайъати 1995 йил 1 март.
8. Насриддинов К. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Тошкент: Мерос, 1996.
9. Пайзиёва М.Х. Тошкент шаҳри ўзбекларининг аънавий ва замонавий мотам маросимлари (XX аср). Тарих фанлари номзодини олиш учун номзодлик дисс. – Тошкент, 2009.
10. Пандей Р.Б. Древнеиндийские домашние обряды. – М.: Высшая школа, 1990
11. Поляков С.П. Традиционализм в современном среднеазиатском обществе. – М., 1989.
12. Сарсенбаев Н.С. Обычаи, традиции и общественная жизнь. – Алма-ата.: Изд-во Казахстан, 1974.
13. Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978.
14. Снесаров Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва. 1969.
15. Сурхаско Ю.Ю. Семейные обряды и верование карел. – Л., 1985.
16. Тейлор Э.Б. Первобытная культура. Пер. с англ. – М.: Политиздат, 1989.
17. Толеубаев А. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов. – Алма-ата: Ылым, 1991.
18. Толипов Файзулла Мозийга бўйлашган маскан Гараша қишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола. – Тошкент, 2008.
19. Тошбаева Т., Савуров М. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Тошкент: Фан, 1989
20. Фрейзер Дж. Золотая ветвь: Исследование магии и религии. – М.: Политическая литература, 1980.
21. Ўзбекистон Республикаси mfa.uz/uz/press/news/2019.
22. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг конунчилик палатасининг кенгаши ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси сенатининг кенгаши қўшма қарори.14.09.2019. № 2736-III/КҚ-592- II
23. Dala yozuvlari. Forish tumani qishloqlari bo'ylab, 2024 yil.
24. Dala yozuvi, Mojirum qishlog'i, 2024 yil.
25. Dala yozuvi. Sayyod qishlog'i, 2024 yil.



UO‘K: 614.2(575.151)

Absalom XO‘JANAZAROV,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD
E-pochta: xujanazarovs@tersu.uz

O‘zMU professori, tarix fanlari doktori A.Yermetov taqrizi asosida

SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI

Аннотация

Ushbu maqolada mamlakatimizda va Surxondaryo viloyatida xususan, Qumqo‘rg‘on tumanida mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarning borishi hamda hudud (tuman) tibbiyoti sohasidagi o‘zgarishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiyot sohasi, islohotlar, shifokorlar, tuman tibbiyot birlashmasi, qishloq vrachlik punktlari.

СИСТЕМА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В КУМКУРГОНСКОМ РАЙОНЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье описывается ход реформ в сфере здравоохранения за годы независимости в нашей стране и в Сурхандарьинской области, в частности в Кумкургонском районе и изменений в области региональной (районной) медицины.

Ключевые слова: Система здравоохранения, медицинская сфера, реформы, врачи, районное медицинское объединение, сельские врачебные центры.

HEALTH CARE SYSTEM IN KUMKURGON DISTRICT, SURKHANDARYA REGION

Annotation

This article describes the progress of reforms in the health sector over the years of independence in our country and in the Surkhandarya region, in particular in the Kumkurgon region, and changes in the field of regional (district) medicine.

Key words: Health care system, medical sphere, reforms, doctors, district medical association, rural medical centers.

Kirish. Mamlakatimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini salohiyatli kadrlar bilan ta‘minlash, tibbiyot muassasalarining moddiy resurs salohiyatini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hozirgi pandemiya sharoitida muhim strategik vazifalardan biriga aylandi. Yuqoridagi vazifalar mamlakatimizda doimo muhim ekanligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMTning 75-sessiyasidagi nutqida ham ta‘kidlab o‘tdilar: “COVID-19 qayd etilgan dastlabki kunlardan boshlab barcha sa‘y-harakat va resurslarimizni bu xavfli kasallikni jilovlash va eng asosiysi – odamlar hayotini saqlab qolishga qaratdik. Pandemiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimlari keskin kuchaytirilmoqda” [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda mustaqillik davrida sog‘liqni saqlash tizimi tarixiga doir qator ilmiy maqolalar va boshqa ishlar nashr etildi. Bu davr adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik tadqiqotchilar e‘tibori asosan xalq tabobatini o‘rganishga qaratildi. Shu bilan birga mazkur soha tarixchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilib, monografiya ko‘rinishidagi ilmiy ishlar nashr etildi. Bunda ayniqsa B.Umrzoqov, A.Qodirov, N.Xo‘jayev, Sh.Iskandarova va G.E.Mo‘minovalarning izlanishlari diqqatga sazovordir. Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. G.E.Mo‘minova, M.D.Maxsumov, N.F.Rasulov, S.A.Djumanov, O.R.Ochilova kabilarning dissertatsiya ishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanida mustaqillik

yillarida sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholiga sifatli va talab darajasida tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha viloyat hokimligi sog‘liqni saqlash tashkilot va muassasalari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. 1996 yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №182-sonli Qarori viloyat sog‘liqni saqlash masalasida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi hukumat qarorini bajara borib, yaxshi natijalarga erishildi. Darhaqiqat, mamlakatimizda jamiyatimizning barcha sohalari kabi sog‘liqni saqlash tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, sog‘liqni saqlash sohasini isloh etish bo‘yicha 170 dan ziyod huquqiy hujjatlar qabul qilindi[2]. Bu jarayonda xalqimizga ko‘rsatilayotgan tibbiy-profilaktika, patronaj yordamini yanada yaxshilash, tez va shoshilinch tibbiy yordam hamda ixtisoslashgan tibbiy yordam sifatini oshirish, aholini arzon va sifatli dori-darmon bilan ta‘minlash, xususiy tibbiyotni rivojlantirish borasida muhim loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2018 yil 7 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni [3] mamlakatimiz tibbiyoti taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu amalga oshirilgan islohotlar tufayli Surxondaryo viloyatida ham bir qator muhim tibbiyot sohasida o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryoda qishloq aholisiga berilayotgan tibbiy yordam hali sifatli va yuqori darajada emas, bolalar va onalar o‘limi yuqoriligi, yuqumli va sil kasalliklari hamda nogironlar sonining o‘sayotganligi qayd etildi. Ayniqsa, sil kasalligining

